UDK: 615.89:61(091)(=512.1)

TURKIY XALQLARDA DAVOLASH USULLARI

Navro‘z Ro‘ziyev
ToshDTU Ijtimoiy fanlar kafedrasi
Shohjahon K. Begimkulov
ToshDTU 1-son Davolash ishi fakultetining talabasi
sbegimqulov07@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20205849

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkiy xalqlarda davolash usullarining tarixiy shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida qadimgi uyg‘ur yozma manbalari hamda turkiy xalqlar tibbiyotiga oid ilmiy adabiyotlar asosida davolash amaliyotining asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Xususan, o‘simlik, hayvon va mineral vositalarga asoslangan davolash usullari, shuningdek, ruhiy va marosimiy davolash amaliyotlari keng tahlil qilingan. Maqolada turkiy tibbiyotning shakllanishida Xitoy, Hind tibbiy an’analarining ta’siri ham ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, qadimgi turkiy jamiyatlarda kasalliklarning etiologiyasi va davolash jarayoniga bo‘lgan kompleks yondashuv, ya’ni jismoniy va ruhiy omillar uyg‘unligi asoslab berilgan. Shuningdek, tibbiy terminologiyaning shakllanishi va uning ilmiy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, turkiy xalqlarda davolash usullari uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, bugungi kunda ham ilmiy va amaliy ahamiyatini saqlab qolgan.

Kalit so‘zlar: Turkiy xalqlar, xalq tabobati, qadimgi tibbiyot, uyg‘ur qo‘lyozmalari, dorivor o‘simliklar, shamanizm, tibbiy terminologiya, an’anaviy davolash usullari.

ТРАДИЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ У ТЮРКСКИХ НАРОДОВ

Аннотация: В данной статье анализируются историческое формирование, этапы развития и особенности методов лечения у тюркских народов. В ходе исследования на основе древнеуйгурских письменных источников, а также научной литературы, посвящённой тюркской медицине, освещаются основные направления лечебной практики. В частности, подробно рассматриваются методы лечения с использованием растительных, животных и минеральных средств, а также духовно-ритуальные практики. В статье также анализируется влияние китайской, индийской и медицинских традиций на формирование тюркской медицины. Кроме того, обоснован комплексный подход к пониманию этиологии заболеваний в древнетюркском обществе, включающий взаимосвязь физических и духовных факторов. Особое внимание уделяется формированию медицинской терминологии и её научному значению. Результаты исследования показывают, что методы лечения у тюркских народов формировались в ходе длительного исторического развития и сохраняют свою научную и практическую значимость в настоящее время.

Ключевые слова*:* Тюркские народы, народная медицина, древняя медицина, уйгурские рукописи, лекарственные растения, шаманизм, медицинская терминология, традиционные методы лечения.

TRADITIONAL METHODS OF TREATMENT AMONG TURKIC PEOPLES

Annotation: This article analyzes the historical formation, stages of development, and specific features of healing methods among Turkic peoples. The study is based on ancient Uyghur written sources and scholarly literature related to Turkic medicine, highlighting the main directions of medical practice. In particular, methods based on plant, animal, and mineral remedies, as well as spiritual and ritual healing practices, are examined in detail. The article also considers the influence of Chinese, Indian, and medical traditions on the development of Turkic medicine. Furthermore, a comprehensive approach to the understanding of disease etiology in ancient Turkic societies is substantiated, emphasizing the interaction between physical and spiritual factors. Special attention is given to the formation of medical terminology and its scientific significance. The findings indicate that the healing methods of Turkic peoples were shaped through a long historical process and continue to retain their scientific and practical relevance today.

Keywords: Turkic peoples, traditional medicine, ancient medicine, Uyghur manuscripts, medicinal plants, shamanism, medical terminology, traditional healing methods.

Kirish:

Turkiy xalqlar tarixan keng hududlarda yashab, turli madaniy va ilmiy an’analar bilan uzviy aloqada bo‘lganligi sababli ularning tibbiyotga oid qarashlari va davolash usullari murakkab va ko‘p qirrali tizim sifatida shakllangan. Qadimgi turkiy jamiyatlarda sog‘liq va kasallik masalalari nafaqat amaliy tajriba, balki ma’lum darajada nazariy bilimlar asosida ham tushuntirilgan bo‘lib, bu holat ayniqsa yozma manbalarda o‘z aksini topadi. Turfon hududidan topilgan qadimgi uyg‘ur qo‘lyozmalarida tibbiyotga oid matnlarning mavjudligi turkiy xalqlarda ilmiy tibbiyot unsurlari shakllanganligini ko‘rsatadi (1). Ushbu manbalarda kasalliklar, ularning belgilari, davolash usullari va dori vositalari haqida tizimli ma’lumotlarning uchrashi tibbiyotning rivojlangan soha bo‘lganidan dalolat beradi. Turkiy xalqlarda davolash usullari asosan xalq tabobati, diniy-falsafiy qarashlar va qo‘shni sivilizatsiyalar ta’siri asosida shakllangan bo‘lib, ayniqsa Xitoy, Hind va tibbiy an’analari muhim o‘rin tutgan (1,3). Natijada, turkiy tibbiyot o‘ziga xos sintezlashgan tizimga aylangan va unda o‘simliklar asosidagi davolash, hayvon va mineral vositalardan foydalanish, shuningdek, akupunktura, massaj va turli marosimiy usullar keng qo‘llanilgan (3). “Tansuqnoma-i Ilxon dar Funun ulum-i Xatoyi” nomli XIII asrda fors tiliga tarjima qilingan asarda ham kuydirish (dağlama) usuli haqida so‘z yuritiladi. Shu bilan birga, turkiy xalqlarda tibbiy terminologiyaning shakllanishi ham muhim ilmiy jarayon hisoblanadi, chunki qadimgi uyg‘ur tilidagi tibbiy atamalar organizm tuzilishi, kasalliklar va davolash usullarini aniq ifodalashga xizmat qilgan (1). Terminlarning katta qismi turkiy ildizlarga asoslangan bo‘lsa-da, ayrimlari sanskrit, so‘g‘d va xitoy tillaridan o‘zlashtirilgan bo‘lib, bu madaniy va ilmiy almashinuv jarayonining yaqqol ifodasidir (1,4). Umuman olganda, turkiy xalqlarda davolash usullari uzoq tarixiy taraqqiyot natijasida shakllangan bo‘lib, ular bugungi zamonaviy tibbiyot nuqtai nazaridan ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi (2,5).

Turkiy xalqlarda tibbiyotning shakllanishi ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, tabiiy muhit va dunyoqarashi bilan bevosita bog‘liq holda rivojlangan bo‘lib, dastlabki bosqichlarda davolash usullari asosan empirik tajribaga asoslangan va avloddan-avlodga og‘zaki tarzda o‘tib kelgan, biroq vaqt o‘tishi bilan ushbu bilimlar tizimlashtirilib yozma manbalarda aks etgan (1,2). Qadimgi uyg‘ur yozma yodgorliklarida tibbiyotga oid terminlar, kasalliklar tavsifi va davolash usullari keltirilgan bo‘lib, bu turkiy xalqlarda tibbiyot ma’lum darajada ilmiylashganligini ko‘rsatadi (1). Shu bilan birga, Markaziy Osiyoning Buyuk Ipak yo‘li orqali boshqa sivilizatsiyalar bilan aloqada bo‘lishi natijasida turkiy tibbiyot turli madaniy ta’sirlar bilan

boyigan (2,3). Davolash ishlari bilan shug‘ullangan kishilar “emchi”, “otaçi”, “tabib”, “baxshi” va “kam” kabi nomlar bilan atalgan bo‘lib, ular bemorning nafaqat jismoniy, balki ruhiy holatini ham davolashga harakat qilganlar.

Turkiy xalqlarda davolashning eng asosiy yo‘nalishlaridan biri tabiiy vositalarga asoslangan bo‘lib, ayniqsa dorivor o‘simliklardan keng foydalanilgan, qadimgi manbalarda o‘simliklarning farmakologik xususiyatlari, ularni tayyorlash va qo‘llash usullari batafsil bayon etilgan, jumladan zanjabil, dolchin, sarimsoq, na’matak va boshqa o‘simliklar organizmni mustahkamlash, yallig‘lanishga qarshi ta’sir ko‘rsatish va umumiy sog‘lomlashtirish maqsadida qo‘llanilgan (1,4). Bundan tashqari, hayvon mahsulotlari: asal, sut, yog‘ va ayrim biologik moddalar davolashda muhim o‘rin tutgan bo‘lib, asal antiseptik vosita sifatida jarohatlarni davolashda keng qo‘llanilgan, sut mahsulotlari esa tiklovchi vosita sifatida ishlatilgan (3,5), mineral moddalar, xususan tuz va tabiiy birikmalar ham ayrim kasalliklarni davolashda qo‘llanilgan.

Amaliy tibbiyot sohasida ham turkiy xalqlarda muayyan yutuqlar kuzatiladi, tarixiy manbalarda jarohatlarni tikish, qon ketishini to‘xtatish, suyaklarni joyiga qo‘yish kabi muolajalar amalga oshirilganligi qayd etiladi (2), shuningdek igna bilan davolash, qon olish va massaj kabi usullar qo‘llanilgan bo‘lib, ular organizmdagi ichki muvozanatni tiklashga qaratilgan (1,4), gigiyena qoidalariga amal qilish, toza suv iste’mol qilish va ovqatlanish madaniyatiga rioya etish kasalliklarning oldini olishda muhim omil sifatida qaralgan (5,6).

Ko‘plab dorivor o‘simliklarning shifobaxsh xususiyatlari zamonaviy ilm-fan tomonidan tasdiqlangan bo‘lsa-da, xalq tabobatida ularni qo‘llashda doza masalasiga har doim ham to‘liq rioya qilinmaydi. Natijada ayrim holatlarda nojo‘ya yoki toksik ta’sirlar kuzatilishi mumkin. Masalan, isiriq tarkibidagi alkaloid moddalar oz miqdorda foydali hisoblangan bo‘lsa, yuqori dozada inson asab tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin (8). Bu holat xalq tabobati bilan zamonaviy tibbiyot o‘rtasida ilmiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan muqobil davolash usullari o‘rganilib, ularning samaradorligi, xavfsizlik darajasi va zamonaviy tibbiyot bilan uyg‘unligi tahlil qilindi.

Tadqiqotda asosiy e’tibor hijoma, fitovanna, issiqlik bilan davolash hamda ritual muolajalarga qaratildi. Hijoma, ya’ni qon chiqarish usuli turkiy xalqlar orasida qadimdan qo‘llanib kelgan bo‘lib, ayniqsa bosh og‘rig‘i, mushaklardagi zo‘riqish va umumiy charchoqni kamaytirishda ishlatilgan (7). Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, ushbu usul steril sharoit va gigiyena qoidalariga amal qilingan holatda nisbatan xavfsiz hisoblanadi. Zamonaviy tibbiyot nuqtai nazaridan esa hijoma qon aylanishini faollashtirishi va mushaklarning bo‘shashishiga yordam berishi mumkin.

Turkiy xalqlar tabobatida o‘simlikli vannalar ham muhim o‘rin tutgan. Archa, yantoq, itburun va boshqa dorivor o‘simliklar qo‘shilgan issiq vannalar mushak va bo‘g‘im og‘riqlarini kamaytirish bilan birga insonning ruhiy holatini tinchlantirish uchun ham qo‘llangan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, issiq suv va o‘simlik tarkibidagi biologik faol moddalar teri orqali organizmga ta’sir ko‘rsatib, yallig‘lanishga qarshi va bo‘shashtiruvchi samara berishi mumkin.

Qizdirilgan tosh yoki issiqlik yordamida davolash usullari ham turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan bo‘lgan. Ushbu usul asosan sovuq ta’sirida yuzaga kelgan mushak spazmlari, bo‘g‘im og‘riqlari hamda tanadagi umumiy zo‘riqishni kamaytirish maqsadida qo‘llanilgan. Kuzatuvlarga ko‘ra, issiqlik qon aylanishini yaxshilab, mushaklarni bo‘shashtirishga yordam beradi. Biroq

haroratning haddan tashqari yuqori bo‘lishi teri kuyishi yoki shikastlanishiga olib kelishi mumkinligi sababli ehtiyotkorlik talab etiladi(7).

O‘tkazilgan tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, turkiy xalqlarning an’anaviy davolash usullari faqat jismoniy sog‘liqni tiklashga emas, balki insonning ruhiy va ijtimoiy holatini mustahkamlashga ham qaratilgan. Ushbu amaliyotlarning ayrim jihatlari zamonaviy fizioterapiya, profilaktika va psixosomatik tibbiyot bilan uyg‘unlik kasb etadi. Shu bilan birga, qon chiqarish yoki ayrim ritual usullarni qo‘llashda sanitariya va xavfsizlik qoidalariga qat’iy amal qilish zarurligi muhim ahamiyatga ega.

Turkiy xalqlarda tibbiyot rivoji bilan bir qatorda tibbiy terminologiya ham shakllangan bo‘lib, qadimgi uyg‘ur tilidagi tibbiy atamalar organizm tuzilishi, kasalliklar, simptomlar va davolash usullarini ifodalashda keng qo‘llanilgan (1), terminlarning katta qismi turkiy ildizlarga asoslangan bo‘lsa-da, ayrimlari sanskrit, so‘g‘d va xitoy tillaridan o‘zlashtirilgan bo‘lib, bu ilmiy va madaniy aloqalarning natijasi hisoblanadi (4). Umuman olganda, turkiy xalqlarda davolash usullari uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, empirik tajriba, ruhiy-amaliy yondashuv va dastlabki ilmiy bilimlarni o‘zida mujassam etgan kompleks tizim sifatida rivojlangan bo‘lib, ular bugungi kunda ham ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi (3,6).

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, turkiy xalqlarda tibbiyot va davolash usullari uzoq tarixiy jarayon davomida shakllanib, empirik tajriba, xalq tabobati, diniy-falsafiy qarashlar hamda qo‘shni sivilizatsiyalar ta’siri asosida rivojlangan murakkab va ko‘p qirrali tizimni tashkil etgan. Qadimgi yozma manbalar, xususan uyg‘ur qo‘lyozmalari tibbiyotga oid bilimlarning ma’lum darajada tizimlashtirilganini, kasalliklar va ularni davolash usullari haqida aniq tasavvurlar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Turkiy tibbiyotda dorivor o‘simliklar, hayvon mahsulotlari va mineral moddalardan keng foydalanilgan bo‘lib, bu amaliy tajribaga asoslangan samarali davolash tizimini shakllantirgan. Shu bilan birga, kasalliklar nafaqat biologik, balki ruhiy va kosmik muvozanatning buzilishi bilan ham izohlangani sababli davolash jarayonida marosimiy va ruhiy usullar ham muhim o‘rin egallagan. Vaqt o‘tishi bilan tibbiy bilimlarning yozma shaklga o‘tishi, terminologiyaning rivojlanishi va turli madaniyatlar bilan ilmiy almashinuv jarayonlari bu sohaning yanada boyishi va tizimlashishiga xizmat qilgan. Umuman olganda, turkiy xalqlarning davolash usullari o‘z davri uchun rivojlangan, kompleks yondashuvga ega bo‘lgan tizim bo‘lib, u insonni jismoniy va ruhiy jihatdan yaxlit holda ko‘rib chiqishi bilan ajralib turadi hamda bugungi kunda ham tibbiyot tarixi va ilmiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Batmaz, M. Eski Uygur Türkçesinde Tıp Terimleri. Ankara, 2013.
2. Gürgan, M. Orta Asya’daki Eski Türk Tıbbı. 2010.
3. Bayat, A. Türk Tıp Tarihi. 2010.
4. Tekin, Ş. Eski Türk Dili ve Kültürü Üzerine Araştırmalar.
5. Karaman, A. Terminologiya va atamashunoslik asoslari.
6. Baykara, B. (2019). O‘rta asrda turk tibbiyoti va shifobaxsh amaliyotlar. Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları
7. Clauson, G. (2010). Turkic Medicine in Historical Perspective. Journal of Ethnomedicine, 12(3), 45–62
8. Arıkan, A. (2020). Turk tibbiyoti tarixi: shifobaxsh o‘simliklar va shifokorlar. Ankara: Bilim va Tadqiqot Yayınları.